TILSHUNOSLIKDA DOLZARB YO'NALISHLAR VA MUAMMOLAR

Tojiboyeva Rayhona
Guliston davlat pedagogika instituti
28-23 guruh talabasi
e-mail: tojiboyevarayhona300@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikning ayni davrdagi dolzarb hisoblanadigan yo'nalishlari hamda ularning ilmiy-nazariy asoslari yoritilib o'tiladi. Xususan, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, tarjimashunoslik nazariyasi kabi sohalarda olib borilayotgan izlanishlar tahlil qilinadi va tushuntiriladi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari, sun'iy ong va global muloqot

sharoitida tilning o‘rni, uning saqlab qolinishi va rivojlanib borishi singari muammolar o‘z aksini topadi.

Kalit so’zlar: tilshunoslik, kognitiv lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, kompyuter lingvistikasi, tarjimashunoslik, metodologik muammolar, global muloqot, axborot texnologiyalari, sun’iy ong, til rivoji.

Abstract: This article discusses the current trends in linguistics and their scientific and theoretical foundations. In particular, research in such areas as cognitive linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, computational linguistics, and translation theory is analyzed and explained. It also reflects on the role of language in the context of modern information technologies, artificial intelligence, and global communication, as well as problems such as its preservation and development.

Keywords: linguistics, cognitive linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, computational linguistics, translation studies, methodological problems, global communication, information technologies, artificial intelligence, language development.

Аннотация: В статье рассматриваются современные тенденции в лингвистике и их научно-теоретические основы. В частности, анализируются и освещаются исследования в таких областях, как когнитивная лингвистика, социолингвистика, психолингвистика, компьютерная лингвистика и теория перевода. Также рассматривается роль языка в контексте современных информационных технологий, искусственного интеллекта и глобальной коммуникации, а также проблемы его сохранения и развития.

Ключевые слова: лингвистика, когнитивная лингвистика, социолингвистика, психолингвистика, компьютерная лингвистика, переводоведение, методологические проблемы, глобальная коммуникация, информационные технологии, искусственный интеллект, развитие языка.

Tilshunoslikning nazariyasini yangi bosqichga olib chiqarish uchun mashhur olimlarning ilmiy ishlari yuksak ahamiyat kasb etadi. Misol qilib oladigan bo’lsak, N. Chomsky tomonidan ishlab chiqilgan generativ grammatika nazariyasi tilning universalligi va inson ongida mavjud bo‘lgan “tilni tabiiy o’rganish qobiliyati” yondashuvini izohlab berdi. Bu nazariya hozirgi kognitiv lingvistikaning shakllanishida poydevor ilmiy nazariyadir. U. Labovning sotsiolingvistika bo‘yicha tadqiqotlari esa tilni ijtimoiy jihatdan tabaqalinishi, ijtimoiy guruhlar va muloqot sharoitidagi xilma-xillik bilan tahlil qilish imkonini berdi.

Hozirgi kunda tilshunoslik sohasida xalqaro, shuningdek, mahalliy olimlarning izlanishlari ham alohida e’tiborga sazovor sanaladi.Avvalo, Deborah Tannenning gender va muloqot bo‘yicha tadqiqotlari til va ijtimoiy munosabatlarning murakkab munosabatlarini ko’rsatib beradi. O‘zbek tilshunosligida esa Sh. Safarov kognitiv lingvistikada ilmiy ishlar yo’lga qo’yib, til va tafakkur masalalariga oid qarashlarni aytib o’tdi [3]. A. Madvaliyev, N. Mahmudov va boshqa olimlarning tadqiqotlari esa o‘zbek tili grammatikasi, leksikologiyasi va uslubiyatida yangi yondashuvlari ilmiy sohada munosib o’rin egalladi.

1. Kognitiv lingvistika va tilning tafakkur bilan uzviy bog‘liqligi. “Bola hech qachon eshitmagan jumlalarni ham tuzib, tushunib bera oladi. Bu esa inson ongida tug‘ma generativ qobiliyat mavjudligidan dalolat beradi”[1,p.18]. Uning bu nazariyasidan kelib chiqadiki, N. Chomsky til o’rganish va o’zlashtirish qobiliyatini inson ongida tug‘ma ravishda mavjud bo‘lgan universal mexanizm asosiy vazifa bajaradi [2]. Kognitiv lingvistika vakillari – J. Lakoff va M. Jonson esa “Metaphors We Live By” (1980) asarida metafora (qiyoslash)ni inson tafakkurining asosiy ishlash prinsipi sifatida aytib o’tishdi. Nazariyasining ma’nosiga ko‘ra, inson tafakkuri mavhum tushunchalarni ko‘p hollarda aniq amaliy tajribalar orqali anglaydi. Masalan, vaqtni fazo orqali tasavvur qilish (kelgusidagi ertaga va o’tmishdagi

kecha) shular jumlasidandir. Insonning dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri til va uni o'rganish sanaladi, til shunchaki ijtimoiy vosita emas.

O'zbek tilshunosligida ham alohida rivojlanayotgan soha – kognitiv tilshunoslik. Sh. Safarovning ilmiy izlanishlari til va tafakkur o'rtasidagi aloqani ijtimoiy va milliy tafakkur xususiyatlari bilan bog'lab o'rganishda muhim qadam bo'ldi. Masalan, o'zbek tilida ishlatiladigan "ko'ngil" tushunchasi nafaqat inson organiga, balki ruhiy holat, ichki kechinma va ma'naviy dunyoni ham ifodalaydi. Bu esa til birliklarining semantik chegaralari va kontekstdagi mazmuni milliy tafakkur bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Sh. Safarov aytganidek, "Til va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish kognitiv lingvistikaning asosiy vazifasidir." [4,p.16].

2. Kompyuter lingvistikasi va yangi texnologiyalarning ta'siri. XX asr o'rtalaridan boshlab kompyuter lingvistikasi va yangi texnologiyalar sohasida izlanishlar kuchaydi, sababi texnika va texnologiyalar asri boshlanish arafasida edi. 1950-yillarda A. Turing tomonidan ilgari surilgan mashhur "Turing testi" tizimi texnikalarning inson nutqini qay darajada anglay olish, tushunish qobiliyatini tekshirish mezoni sifatida ilm-fanga olib kirgan. Bugungi kunda esa sun'iy intellekt tizimlari nafaqat oddiy muloqot olib boradi, balki yangicha matn yaratadi, nutqni analiz-sintez qiladi, tezlikda tarjima ishlarini amalga oshiradi. Google Translate, ChatGPT va boshqa GPT kabi tizimlar kompyuter lingvistikasining zamonaviy dunyodagi amaliy yutuqlaridir.

Hozirgi axborot bazalarning zamonaviy ko'rinishi bo'lmish korpus "korpus lingvistikasi"ga poydevor bo'lib xizmat qilmoqda. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasi doirasida alohida ahamiyatga ega, sababi millionlab matnlardan iborat elektron bazalar bo'lib, baza til birliklari(so'zlari, so'z birikmalari, atamalar, frazalar)ning hayotda qo'llanishilini statistik tahlil qiladi.

Masalan, ingliz tilini tadqiq etish uchun qo'llanadigan bir qancha xorijiy korpuslar bo'lib, ular British National Corpus (BNC) yoki Corpus of Contemporary American English (COCA) deb ataladi. O'zbek tilshunosligida ham "O'zbek tilining milliy korpusi" loyihasi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu tilni zamonaviy elektron muhitda tadqiq qilish va o'qitishda katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Ilmiy fakt sifatida ta'kidlash joizki, kompyuter lingvistikasi sun'iy intellektning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi va u kelajakda inson-mashina o'zaro aloqasini yanada mukammal darajaga olib chiqishi kutilmoqda. Masalan, nutqni real vaqtda sintez qiluvchi neyron tarmoqlar yordamida mashinalar inson nutqiga o'xshash ohang, intonatsiya va hissiy rang berishi mumkinligi allaqachon isbotlangan.

3. Sotsiolingvistika va tilning ijtimoiy tabaqalanishi. Sotsiolingvistika tilshunoslikning jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan eng muhim yo'nalishidir. Bu fan tilni sof lingvistik tizim emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida ko'rib, uning jamiyatdagi tabaqalanishi, guruhlararo farqlanishi va kommunikativ vazifalarini tahlil qiladi. Til va jamiyat o'rtasidagi uzviy aloqani ilmiy jihatdan asoslab bergan olimlardan biri - U. Labov bo'lib, u "Sotsiolingvistik naqshlar" (Sociolinguistic Patterns, 1972) asarida tilning ijtimoiy qatlamlarga qarab farqlanishini isbotladi. Masalan, Nyu-Yorkdagi turli ijtimoiy guruh vakillari nutqidagi farqlar fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarda yaqqol namoyon bo'lishini ilmiy tajribalar asosida ko'rsatdi.

Tilning ijtimoiy tabaqalanishi va darajalanishining zamirida gender masalasi ham yotadi. Deborah Tannen o'z tadqiqotlarida erkaklar va ayollarning muloqot uslublaridagi farqlarni ko'rsatib, tilning gender stereotiplari va jamiyatdagi ijtimoiy rollar bilan aloqadorligini yoritish bilan birgalikda, "Ayollar suhbatlarda yaqinlikni saqlash uchun tilni ishlatadilar, bu esa 'rapport-talk' deb ataladi.", deya ta'kidlab o'tgan.[5,p.17] D.Tannenning

bu kabi ijtimoiiy munosabatlar negizida tilning rivojlanishi, tildan foydalanilishi birvarakayiga sotsiologiya, psixologiya, shuningdek, lingvistika sohalariga muhim yangiliklarni olib keldi.

Ushbu ilmiy izlanishlarni ko'rib chiqqach shunita'kidlash joizki, tilshunoslik nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki jamiyat hayotida, madaniyatlararo munosabatda hamda texnologik rivojlanishda bevosita o'rin egallaydi. Tilni yaxlit o'rganib chiqish inson tafakkuri, ijtimoiy-madaniy muhit va texnologik taraqqiyotning bir-biri bilan uzviy bog'liqligini chuqurroq anglashga imkon beradi.

Tilshunoslik tadqiqotlari fanlararo sohasini kengaytirib, kognitiv(aqliy) va neyrolingvistika, sotsiolingvistika va pragmalingvistika, kompyuter lingvistikasi va tarjimashunoslikni integratsiyalashtirish natijasida rivojlantirishni ko'zda tutish darkor. Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik fani nazariy va amaliy jihatdan yanada kengaygan holda ilmiy taraqqiyotda o'zining global o'rnini topish va mustahkamlash imkoniga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomsky, Noam. Aspects of the Theory of Syntax. MIT Press
2. Chomsky, Noam. The Logical Structure of Linguistic Theory. Plenum, 1975.
3. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2006.
4. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2008.
5. Tannen D. Gender and Discourse. – Oxford: Oxford University Press, 1994.